

QARSHI SHAHRINING IJTIMOIIY IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TABIIY OMILLARNING ROLI VA AHAMIYATI

Ramazonov S. B.

Qarshi Davlat Universiteti Geografiya yo'nalishi mustaqil tadqiqotchisi. Qarshi shahri
O'zbekiston. Ramazonov S. B.

Annotatsiya: Qarshi shahrining ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishda tabiiy omillar orqali yuzaga keladigan muammolar va ularni shahar atrof muhiti va infrastrukturasiga ta'siri o'rganilgan hamda Qarshi shahri atrofida sanoat korxonalarini joylashtirishda ahamiyat berish lozim bo'lgan tabiiy omillar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, urbanizatsiya, relief, aholi, shelter, shahar, qishloq, sanoat zonalari,

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПРИРОДНЫХ ФАКТОРОВ В СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ГОРОДА КАРШИ

Рамазонов С. Б.

Независимый исследователь, кафедра географии Каршинского государственного университета, г.
Карши, Узбекистан. Рамазонов С.Б.

Аннотация: Изучены проблемы, возникающие под воздействием природных факторов в социально-экономическом развитии города Карши и их влияние на экологию и инфраструктуру города, а также изучены природные факторы, которые следует учитывать при размещении промышленных предприятий вокруг города Карши.

Ключевые слова: промышленность, урбанизация, рельеф, население, жилье, город, деревня, промышленные зоны

THE ROLE AND IMPORTANCE OF NATURAL FACTORS IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE CITY OF KARSHI

Ramazonov S. B.

Independent researcher, Department of Geography, Karshi State University. Karshi city, Uzbekistan.
Ramazonov S. B.

Abstract: The problems arising from natural factors in the socio-economic development of the city of Karshi and their impact on the city's environment and infrastructure were studied, and the natural factors that should be considered when locating industrial enterprises around the city of Karshi were studied.

Keywords: industry, urbanization, relief, population, shelter, city, village, industrial zones

Qarshi shahri O'zbekiston Respublikasining janubiy qismida, Qashqadaryo viloyatining markazida joylashgan bo'lib, geografik koordinatalari 38°51' shimoliy kenglik va 65°47' sharqiy uzunlikda joylashgan. Shaharning balandligi dengiz sathidan o'rtacha 374 metrni tashkil qiladi. Qarshi shahri o'zining qulay geografik joylashuvi sababli qadimdan muhim strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan. U tarixan Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahalaridan biri sifatida tanilgan.[1;45]

Qarshi shahri atrofida joylashgan sanoat korxonalarining joylashuviga tabiiy omillar juda katta ta'sir ko'rsatgan. Quyida Qarshi atrofidagi sanoat korxonalariga tabiiy omillar asosida berilgan tahliliy tavsif keltirishimiz mumkin.

Qarshi shahri Qashqadaryo viloyatining sanoat yuragi hisoblanadi. Bu yerda sanoat korxonalari ko'p va xilma-xildir. Ayniqsa "Qavali" kichik sanoat zonasi hududida faoliyat yuritayotgan korxonalar yangi texnologiyalar va eksport salohiyatiga ega. Shuningdek, avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqaruvchi yirik korxonalar (Avtotraktorradiator, Karshi Radiator) ham shaharning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi.

Suv resurslarining chegaralanganligi bu omillarning asosiy jihatlardan biridir. Qarshi shahri tabiiy suv manbalariga boy emas. Asosiy suv manbai Qarshi magistral kanali, hamda Qashqadaryo daryosidir. Iqlim issiq va qurg'oqchil bo'lgani uchun suvdan foydalanish bosimi yuqori, shu bilan birgalikda qishloq xo'jaligi, aholi va sanoat ehtiyoji o'sib bormoqda.

Yana bir asosiy tabiiy omillardan biri iqlimning haddan tashqari quruq va issiq bo'lishi. Yozda havo harorati $+40^{\circ}\text{C}$ va undan yuqori bo'lishi, atmosfera namligi past, chang ko'p, shamollar tez-tez esadi. Buning natijasida issiq havoda uskunalar tez isiydi, sovitish tizimlariga ehtiyoj ortadi. Ishchilar uchun mehnat sharoiti og'irlashadi, bu esa mehnat unumdorligiga ta'sir qiladi.

Shamol tezligi va chang ko'tarilishi. Qarshi vohasi ochiq dasht va cho'l hududiga yaqin joylashgan. Bahor va kuz oylarida changli shamollar tez-tez kuzatiladi. Natijada ochiq havoda joylashgan ishlab chiqarish liniyalariga chang kirishi texnologik jarayonlarga xalaqit beradi hamda atrof-muhit ifloslanishi ortadi, natijada ekologik xavf kuchayadi.

Chang va atmosfera ifloslanishining tabiiy ko'payishi. Tabiiy chang va quruq shamollar sabab atmosfera sifatini saqlash mushkul. Tashqi havoning allaqachon quruq va iflos bo'lishi sanoat chiqindilari bilan birikib salomatlik va ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada Ekologik nazorat kuchaytiriladi. Filtratsiya va chiqindi gazlarni tozalash texnologiyalariga sarmoya oshadi. Sanitar-gigiena zonalarini kengaytirilishi kerak bo'ladi.[2;84]

Xulosa qilib aytganda, Qarshi shahri atrofida barpo etilayotgan hamda qurilishi rejalashtirilayotgan sanoat korxonalarini joylashtirishda tabiiy omillar xavf tug'dirmasligi uchun oldindan rejalashtirilgan, ilmiy va texnologik asoslangan choralar ko'rilishi kerak. Bunish uchun quyidagicha taklif va tafsilyalar berish mumkin.

1. Suv tanqisligiga qarshi chora-tadbirlar. Suvni tejovchi texnologiyalar joriy etish (masalan, yopiq suv aylanish tizimlari, tomchilatib sug'orish). Sanoat chiqindilarini tozalab qayta ishlash texnik suvni qayta foydalanish. Zavodlar joylashuvi suv manbaiga yaqin, ammo ekologik xavfsiz masofada belgilanishi lozim. Suv balansini monitoring qilish uchun raqamli nazorat tizimlari o'rnatish.

2. Issiq va quruq iqlimga moslashtirish.

Ishlab chiqarish binolarini issiqni qaytaruvchi materiallar bilan qurish. Korxonalarda ventilyatsiya va sovutish tizimlarini joriy qilish. Ishchilarga mos ish va dam olish rejimi, issiqda xavfsiz mehnat muhitini yaratish.

3. Shamol va changga qarshi choralar. Tez-tez esuvchi shamollar va tabiiy chang sanoat jarayonlariga xalaqit beradi. Korxona atrofida yashil himoya zonalarini tashkil qilish (daraxtlar, butazorlar). Changni filtrlaydigan maxsus texnik vositalar (filtrlar, havo tozalagichlar) o'rnatish. Ochiq havoda ishlovchi uskunalarini shelter yoki yopiq maydonlarga o'tkazish. Binolarda chang va havoni avtomatik nazorat qilish tizimlarini o'rnatish.

4. Ekologik xavf va havoning ifloslanishiga qarshi choralar. Har bir korxona uchun atmosfera chiqindilarini tozalash tizimi (filtr, gaz tozalagich) majburiy bo'lishi kerak. Ekologik monitoring va audit muntazam o'tkazilishi shart. Sanoat zonalarini orasida sanitar himoya zonalarini (500–1000 metr) ajratilishi kerak. Ekologik talablarni buzgan korxonalar uchun qat'iy javobgarlik belgilanishi zarur.

6. Hududiy rejalashtirish va sanoatni muvozanatli rivojlantirish Sanoat korxonalarini joylashtirishda geologik, gidrologik, ekologik va iqlimiy sharoitlar oldindan ilmiy asosda

o'rganilishi kerak. Qarshi shahri atrofida klaster asosida sanoat zonalarini tashkil etish — yaqin yo'nalishdagi korxonalarni bir joyda to'plab, resurslardan samarali foydalanish. Har bir yangi loyiha uchun atrof-muhitga ta'sir baholovi (OVOS) majburiy bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va Atrof-Muhitni Muhofaza Qilish Davlat Qo'mitasi hisobotlari, 2023
2. "Shahar infratuzilmasi va ekologiya" — O'zbekiston ilmiy jurnali, 2022.
3. T. Rahmonov, "Kanalizatsiya tizimlarining shaharlar rivojlanishidagi o'rni", Toshkent, 2021.
4. "Qashqadaryo viloyatining suv resurslari va ekologik holati" — ilmiy maqola, 2023.
5. M.A. Rasulov – "Sanoat geografiyasi" (ilmiy-uslubiy qo'llanma) Toshkent Davlat Universiteti, 2020
6. "O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" (darslik) S.S. Egamberdiyev, B.X. Jo'rayev O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2021
7. <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari to'plami, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyundagi PQ–270-sonli qarori
8. <https://eco.gov.uz> Qashqadaryo viloyati ekologiya boshqarmasi ma'lumotlari
9. <https://qashstat.uz> Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari